

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайлловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i> MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI: MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI (Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i> IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i> MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA: O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i> OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i> JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i> RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i> RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i> HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i> СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i> JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

09.00.00 – FALSAFA FANLARI - PHILOSOPHICAL SCIENCES**Received:** 03 January 2026**Accepted:** 17 January 2026**Published:** 30 January 2026*Article / Original Paper***SOCIO-POLITICAL AND MORAL PROBLEMS OF DESTRUCTIVE IDEAS****Tashanov Abduxoliq**Head of Department at the Institute for Social and Spiritual Studies,
Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor

Abstract. The article analyzes the essence and nature of destructive ideas and the characteristics of their manifestation in socio-political spheres. It also examines the social consequences of destructive ideas aimed at dismantling social structures, their role in destabilizing the political environment, exerting negative influence on legitimate authority or attempting to overthrow it, inhumane political revolutions, violations of moral norms, and the destructive nature of immorality.

Keywords: destructive ideas, socio-political systems, society, state, social development, social environment, social stability, political instability, crisis.

BUZG'UNCHI G'OYALARNING IJTIMOY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI**Tashanov Abduxoliq**Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Maqolada buzg'unchi g'oyalarning mazmun-mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy sohalarda namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy tuzilmalarni yo'q qilishga qaratilgan buzg'unchi g'oyalarning ijtimoiy oqibatlari, siyosiy muhitni izdan chiqarish, legitim hokimiyatga salbiy ta'sir o'tkazish yoki uni ag'darish, g'ayriinsoniy siyosiy inqiloblar, axloqiy me'yorlarning buzilishi va axloqsizlikning buzg'unchi mohiyati o'rganilgan.

Kalit so'zlar: buzg'unchi g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy tizimlar, jamiyat, davlat, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy muhit, ijtimoiy barqarorlik, siyosiy beqarorlik. inqiroz.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N09>

Kirish. Buzg'unchi g'oyalar ijtimoiy, madaniy, siyosiy va axloqiy tizimlarga katta zarar yetkazadi. Bu o'z navbatida jamiyatning tarkibiy qismlari muvozanatiga, uning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Taraqqiyotning hozirgi davrida turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs munozara doirasidan chiqib to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda"[1.38-39]. Buzg'unchi g'oya va buzg'unchi faoliyatning ijtimoiy-madaniy muammolari jamiyatda ijtimoiy birlikning buzilishi, kuchli madaniy inqiroz, madaniy globalizatsiya va madaniy parchalanish, axloqiy qadriyatlarning yemirilishi va shu kabi bir qancha muammolarni qamrab oladi.

Ma'lumki, buzg'unchi g'oyalar va uning natijasidagi faoliyat ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtirib, madaniy merosga tahdid soladi va umumiy qadriyatlarni yo'q qiladi. Bu o'rinda muhim muammolardan biri ijtimoiy birlikning buzilishi bo'lib, buzg'unchi g'oyalar jamiyatda qarama-qarshiliklarni kuchaytirib, odamlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va birdamlikni yo'q qiladi, pirovardida vujudga kelgan adovat, ig'vo va jamiyatning parchalanishiga olib keladi. "Inson ongi va qalbi uchun kurash yangi sifatiy xususiyat kasb etgan bir davrda, e'tiqod umumiyligiga asoslanish, etnik birlikka urg'u berish hamda yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy makonda yashash natijasida yuzaga kelgan bog'liqlikni ro'kach qilish asosda yakka mafkuralar hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar kuzatilmoqda"[2.38-39].

Adabiyotlar tahlili. Buzg'unchi g'oyalarning tarixi, mohiyati va evolyutsiyasi juda katta tarixiy davrlarni bosib o'tgan va turli fan soha vakillari. ayniqsa faylasuflar tomonidan keng o'rganilgan mavzulardan biri hisoblanadi. Masalan, G'arb falsafasida buzg'unchi g'oyalar muammosi jamiyat, hokimiyat va axloq munosabatlari doirasida keng tahlil qilingan. Platon o'zining "Davlat" asarida jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi noto'g'ri g'oyalarni adolatli davlat tuzumi orqali bartaraf etish mumkinligini ta'kidlaydi. Aristotel "Siyosat" asarida ekstremal qarashlar davlat inqiroziga olib kelishini ilmiy asoslaydi. T. Gobbs "Leviafan" asarida mafkuraviy tartibsizlik va radikal g'oyalar ijtimoiy kelishuv buzilishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi. J. Lokk inson huquqlarini inkor etuvchi g'oyalarni axloqiy buzuqlik manbai sifatida baholaydi. I. Kant esa "Amaliy aql tanqidi" asarida axloq me'yorlariga zid g'oyalar jamiyat ma'naviy tanazzuliga olib kelishini asoslab beradi.

Sharq falsafasida buzg'unchi g'oyalar asosan ma'naviyat, tarbiya va jamiyat uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Konfutsiy o'z ta'limotida jamiyatdagi beqarorlik sababini axloqiy qadriyatlarning yo'qolishi bilan bog'laydi. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida yot va buzg'unchi g'oyalar nomukammal jamiyatni shakllantirishini ta'kidlaydi. Ibn Sino inson nafsiga tayangan g'oyalarni axloqiy inqiroz manbai deb hisoblaydi. Al-G'azzoliy esa radikal fikrlarni ilmsizlik va ma'naviy zaiflik natijasi sifatida talqin qiladi. Ibn Xaldun "Muqaddima" asarida esa buzg'unchi g'oyalarni ijtimoiy inqiroz va davlat parokandaligining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatadi.

O'zbek falsafiy merosida ham buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'rifiy va axloqiy yondashuv ustuvor hisoblanadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida jaholat va yovuz g'oyalarni inson kamolotiga to'siq sifatida talqin qiladi. Abdurauf Fitrat milliy tafakkurni yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf deb baholaydi. Islom Karimov asarlarida ekstremizm va terrorizm g'oyalari ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka tahdid ekani chuqur tahlil qilingan. Ko'plab mutaxassislarimiz buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda ma'naviy tarbiyani kuchaytirish orqali immunitet shakllantirish g'oyasini ilgari suradi. Ushbu faylasuflar merosi buzg'unchi g'oyalarning oldini olishda milliy va ma'naviy yondashuv muhim ekanini ko'rsatadi.

Metodologiya. Mazkur maqolada falsafiy-tahliliy metod orqali buzg'unchi g'oyalarning mohiyati, shakllanish manbalari hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy oqibatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Shuningdek, dialektik yondashuv qo'llanilib, g'oyalarning jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar ta'sirida paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlari o'rganildi. Bu usul buzg'unchi g'oyalarni statik emas, balki dinamik jarayon sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy metoddan ham foydalanilib, ushbu metod orqali turli davrlar va madaniy muhitlarda shakllangan buzg'unchi g'oyalar taqqoslanib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, g'arb va sharq falsafasi hamda milliy falsafiy tafakkur doirasida buzg'unchi g'oyalarga berilgan baho qiyosiy tahlil qilindi. Bu yondashuv mavzuning umuminsoniy va milliy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi.

Shu bilan birga, maqolada ijtimoiy-falsafiy va aksiologik metodlar qo'llanildi. Ijtimoiy-falsafiy tahlil buzg'unchi g'oyalarning jamiyat barqarorligi, siyosiy tizim va ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini o'rganishga yo'naltirildi. Aksiologik yondashuv esa ushbu g'oyalarning axloqiy qadriyatlarga munosabati, inson ongi va ma'naviyatiga ta'sirini baholash imkonini berdi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asosli va xolis bo'lishini ta'minladi.

Muhokama va tahlillar. Ijtimoiy birlikning buzilishi jamiyatning asosiy tuzilmalari, insoniy munosabatlar va ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi uyg'unlikning yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan muammodir. Ijtimoiy birlikning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy muammolarning falsafiy tahlili uning shaxs, jamiyat bilan bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishni taqozo qiladi.

Bizning fikrimizcha, ijtimoiy birlikning buzilishida inson tabiati va shaxsning mustaqilligi bilan bog'liq muammolar muhim o'rin tutadi. Falsafiy nuqtai nazardan, insonlar tabiatan individualist bo'lib, o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan yuqori qo'yadilar. Bu individualizm jamiyatning yakdillikka erishishiga to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy birlikning buzilishi falsafiy muammolardan kelib chiqib, inson tabiati, axloq, mafkura, iqtisodiy tengsizlik va madaniy tanazzul bilan bog'liq. Insoniy qadriyatlar va axloqiy tamoyillar, iqtisodiy adolat, siyosiy barqarorlik va madaniy birlikni zaiflashtirish orqali ijtimoiy birlikka putur yetadi. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatdagi hamjihatlik, ma'naviy qadriyatlar va umumiy maqsadlar muhim ahamiyatga ega.

Buzg'unchi g'oyalar va buzg'unchi faoliyatning siyosiy oqibatlari ham jiddiy muammolarga olib keladi. Ular davlat tuzilmalari, siyosiy barqarorlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid soladi. Bu muammolar sirasiga siyosiy inqiroz, terrorizm va ekstremizm, siyosiy instrumentalizatsiya, siyosiy inqiloblar va shu kabi buzg'unchi harakatlarni kiritish mumkin.

Davlat va jamiyat hayotidagi radikal mafkuralar va buzg'unchi faoliyatlar siyosiy barqarorlikni buzadi, davlatni parchalanish yoki diktatura o'rnatishga majbur qiladi. Bunday harakatlar ortidan siyosiy inqiloblar, fuqarolik urushlari yoki hokimiyat vakuumlari kelib chiqishi mumkin. Buzg'unchi g'oyalar terroristik harakatlarga asos bo'ladi, ekstremistik guruhlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Terrorizm jamiyatning tinch va osuda hayotiga, davlat xavfsizligiga katta tahdid soladi. Ba'zan buzg'unchi g'oyalar va harakatlar siyosiy kurashlarda instrument sifatida qo'llanilishi mumkin. Hokimiyatga erishish uchun radikal g'oyalardan foydalanish yoki muxolifatni zaiflashtirish maqsadida ijtimoiy va siyosiy tizimlar buzilishi ehtimoli mavjud[3.299].

Buzg'unchi g'oyalar siyosiy muhitni o'zgartirish, hokimiyatga ta'sir o'tkazish yoki uni ag'darish maqsadida qo'llaniladi. Bu jarayonlar jamiyatni parchalashi, ziddiyatlar keltirib chiqarishi va siyosiy inqirozlarga sabab bo'lishi mumkin. Falsafada hokimiyat va mafkura tushunchalari markaziy o'rinlardan birida turadi. Buzg'unchi g'oyalar aksariyat hollarda mavjud hokimiyatni tanqid qiladi yoki uning o'rnini egallashga urinadi. Siyosiy tuzilmalarga qarshi harakatlar o'z maqsadlariga erishish uchun radikal mafkuralardan foydalanadi. Siyosiy

tuzilmalar ko'pincha hokimiyatdagi gegemon mafkurani himoya qiladi. Buzg'unchi g'oyalar esa bu mafkurani inkor etib, muqobil siyosiy nazariya va tamoyillarni taklif qiladi. Bu kurash hokimiyatning qayta taqsimlanishiga yoki uning inqiroziga olib kelishi mumkin[4.114].

Siyosiy inqiloblar aksariyat hollarda radikal g'oyalarga asoslanadi. Buzg'unchi harakatlar inqilob orqali mavjud hokimiyatni ag'darishga harakat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan inqiloblar bir tomondan ijtimoiy o'zgarishlarning zarur qismi sifatida qaralsa, boshqa tomondan ular jamiyatda zo'ravonlik va beqarorlikka olib keladi. Falsafiy tahlilda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar buzg'unchi g'oyalar ta'sirida jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Davlat hokimiyatining legitimligi va jamiyat bilan munosabatlar buzg'unchi g'oyalar tufayli qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Buzg'unchi g'oyalar mavjud davlat tuzilmalari va ularning legitimligini shubha ostiga qo'yadi. Ular davlatning fuqarolar manfaatlariga xizmat qilmayotganini iddao qilib, yangi siyosiy tuzilmalarni taklif etadi. Bu jarayon davlatning hokimiyat vakolatlariga ta'sir ko'rsatib, jamiyatdagi siyosiy inqirozlarni kuchaytirishi mumkin. Ba'zi buzg'unchi g'oyalar davlat tuzilmalarini umuman inkor etadi, anarxizmga asoslangan siyosiy nazariyalarni targ'ib qiladi. Anarxistik g'oyalar fuqarolar o'rtasida hokimiyatga qarshi harakatlar va davlatsiz jamiyat konsepsiyalarini ilgari suradi. Bu esa jamiyatda siyosiy parchalanishga va qonunsizlikka olib kelishi mumkin.

Buzg'unchi g'oyalar demokratik jarayonlarga ham, avtoritar tuzilmalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ular siyosiy tizimlarning barqarorligi va qonuniyligini shubha ostiga qo'yadi. Demokratik tizimlar buzg'unchi g'oyalar ta'sirida zaiflashadi, demokratik muhitda erkin fikr va qarashlar mavjud bo'lgani sababli, radikal g'oyalar ham tez tarqalishi mumkin[5.214]. Bu, ayniqsa, saylov jarayonlari yoki siyosiy faoliyatlarda ko'rinib, radikal partiyalar va guruhlarining kuchayishiga olib keladi. Buzg'unchi g'oyalar avtoritar tuzumlarga qarshi harakatlar orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, bunday g'oyalar inson erkinligi va haq-huquqlarini himoya qilish uchun vosita sifatida qaralishi mumkin, lekin ular ko'pincha zo'ravonlikka asoslangan bo'ladi va siyosiy inqirozlarga sabab bo'ladi.

Terrorizm va ekstremizm radikal buzg'unchi g'oyalar asosida siyosiy vosita sifatida ishlatiladi. Ular zo'ravonlik va qo'rquv orqali o'z siyosiy maqsadlariga erishishga urinadi. Terroristik va ekstremistik harakatlar davlatga va jamiyatga nisbatan radikal qarshilik ko'rsatadi. Falsafiy tahlilda bu harakatlar ijtimoiy adolat yoki mafkuraviy maqsadlar uchun kurash sifatida qaralishi mumkin, ammo ular ko'pincha siyosiy beqarorlik va inson huquqlarining buzilishiga olib keladi[6.114]. Falsafiy nuqtai nazardan, terrorizm va radikal buzg'unchi harakatlar legitim maqsadlarga erishish vositasi sifatida bahsga sabab bo'ladi. Ba'zi nazariyalarda bu harakatlar zulmga qarshi kurash sifatida ko'rilsa, boshqalar ularni yomonlik va inson erkinliklariga tahdid sifatida inkor qiladi.

Ijtimoiy qo'zg'olonlar va inqiloblar ko'pincha buzg'unchi g'oyalar ta'sirida yuzaga keladi. Siyosiy falsafada bu jarayonlar ijtimoiy adolat, hokimiyat taqsimoti va inson huquqlari masalalaridagi ziddiyatlar asosida qaraladi. Buzg'unchi g'oyalar ko'pincha ijtimoiy adolatni tiklash, erkinlik va tenglikni ta'minlash bahonasida tarqaladi. Ammo, bunday harakatlar ba'zan yangi zulm va siyosiy bosimlarga olib kelishi mumkin, bu esa inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni yanada kuchaytiradi. Turli siyosiy ideologiyalar o'rtasidagi kurashlarda buzg'unchi g'oyalar jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy bo'linishni chuqurlashtiradi. Falsafiy tahlilda bu jarayonlar ijtimoiy tanazzul va parchalanishga olib kelishi mumkin.

Buzg'unchi g'oyalarning inson va jamiyat hayotida keng tarqalishi keng ko'lamli **axloqiy muammolarni** keltirib chiqaradi. Bu muammolar qatorida axloqiy deklinatsiya, individualizmning kuchayishi, inson qadr-qimmatining pasayishi, axloqiy relyativizm va universal qadriyatlar muammosi, mas'uliyatsizlik, egoizm kabi axloqiy muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin. Buzg'unchi g'oyalar va faoliyat axloqqa, insonning ma'naviy qadriyatlari va jamiyatdagi axloqiy normalarga jiddiy zarar yetkazadi. Buning natijasida eng ayanchli oqibatlarga olib keluvchi axloqiy deklinatsiya holati sodir bo'ladi. Buzg'unchi g'oyalar inson axloqini buzadi, uning ma'naviy asoslarini zaiflashtiradi. Bu yomonlik, zo'ravonlik va qonunsizlikni normallashtiradi[7.215].

Axloqiy relyativizm — har bir inson yoki jamiyatning o'z axloqiy me'yorlari va qadriyatlari bo'lishi mumkinligini tasdiqlovchi qarashdir. Falsafiy nuqtai nazardan, "axloqiy relyativizm axloqning umumiy prinsiplari yo'qligini yoki ularning subyektivligiga ishonishni keltirib chiqaradi. Bu axloqiy inqirozga va ma'naviy qadriyatlarning zaiflashuviga sabab bo'ladi"[8.62]. Axloq subyektivlashganda, har bir shaxs o'z shaxsiy manfaatlarini va xohishlariga mos keladigan qoidalarni yaratadi. Bu jamiyatda umumiy axloqiy me'yorlarning yo'qolishiga olib kelib, axloqiy inqirozni kuchaytiradi. Shuningdek, axloqiy relyativizm insonlar o'rtasidagi munosabatlarda axloqiy barqarorlikni yo'qotadi. Har bir shaxs o'z axloqini himoya qilgan ekan, jamiyatda birdamlik va umumiy axloqqa rioya qilish pasayadi.

Ma'lumki, buzg'unchi g'oyalar jamiyatning umumiy manfaatlaridan ko'ra shaxsiy manfaatlarini yuqori qo'yadi. Bu individualizm va egoizmning kuchayishiga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi. Bu kabi g'oyalar insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini ham pasaytiradi, uni faqat siyosiy yoki mafkuraviy maqsadlar uchun foydalaniladigan vosita sifatida ko'radi. Buzg'unchi g'oyalar va inson buzg'unchiligidan axloqiy muammolariga falsafiy nuqtai nazaridan yondashilganda, ularning jamiyatning ma'naviy asoslari, inson qadriyatlari va axloqiy qoidalarga jiddiy ta'sir ko'rsatishini alohida ta'kidlash mumkin. Bu muammolar axloqiy me'yorlar, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar hamda inson mas'uliyati kabi masalalarda qayd etilgan. Buzg'unchi g'oyalar ko'pincha axloqiy relyativizm, ya'ni har bir inson yoki jamiyatning o'z qadriyatlari va qoidalarga ega ekanini ta'kidlaydi. Bu, falsafiy nuqtai nazardan, universal axloq va umumiy qadriyatlar tushunchasiga qarshi chiqadi. Axloqiy relyativizm buzg'unchi g'oyalarni himoya qilish uchun asos sifatida qo'llaniladi. Universal axloqiy me'yorlarning yo'qligi yoki ularning inkor qilinishi insoniyatning birlikka kelishi va hamjihatlikka erishishida jiddiy muammolarga sabab bo'ladi[9.5].

Buzg'unchi g'oyalar umumiy axloqiy tamoyillarni, masalan, insoniylik, adolat va shafqatni inkor qiladi yoki zaiflashtiradi. Bu qadriyatlar inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning asosi hisoblanib, ularning inkor qilinishi ijtimoiy tuzilmalarni zaiflashtiradi. Falsafiy tahlilda buzg'unchi g'oyalar yaxshilik va yomonlikning aniq chegaralarini zaiflashtiradi. Bu holatda axloqiy me'yorlar noaniq bo'lib, shaxslar va guruhlar o'z manfaatlariga mos keladigan axloqiy qoidalarni ilgari suradilar. Buzg'unchi g'oyalar yaxshilik va yomonlik tushunchalari o'rtasidagi chegarani buzadi. Insonlar o'z shaxsiy yoki guruh manfaatlarini yo'lida yomonlikni yaxshilik sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu jamiyatda yovuzlikning normallashtirishiga olib keladi.

Shuningdek, buzg'unchi g'oyalar haqiqatni subyektiv tushunishni targ'ib qiladi, ya'ni har kim o'zini haq deb hisoblashi mumkin. Bu haqiqat va yolg'on, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini bir-biriga aralashtiradi va axloqiy me'yorlarning umumiy qabul qilinishiga

to'sqinlik qiladi. Buzg'unchi g'oyalar ko'pincha insonlarni shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishga undaydi va jamiyat yoki boshqa insonlar oldidagi ma'naviy javobgarlikni zaiflashtiradi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarning shaxsiy manfaatlarini ustuvor qo'yadi. Bu egoizm va individualizmni kuchaytirib, insonlarning bir-biriga nisbatan javobgarligini pasaytiradi. Jamiyatda axloqiy me'yorlar va javobgarlik tushunchalari yo'qolishi mumkin[10.472].

Buzg'unchi g'oyalar inson ma'naviyatining asosini tashkil qiluvchi qadriyatlarni inkor qiladi yoki ularni faqat shaxsiy manfaatga yo'naltiradi. Bu, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ma'naviy bo'shliq va axloqiy me'yorlarga bo'lgan ishonchning zaiflashishiga olib keladi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarga zo'ravonlik va buzg'unchilikni qonuniy deb qabul qilishga yordam beradi. Ular zo'ravonlikni ma'lum bir axloqiy oqlov yoki maqsadlar asosida asoslashga harakat qiladi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarning zo'ravonlikka moyilligini oshiradi va uni axloqiy jihatdan oqlaydi. Bu yovuzlikni yaxshilikka erishish vositasi sifatida ko'rsatadi, shuningdek, insonlar o'rtasidagi munosabatlarda nizolar va ziddiyatlarning kuchayishiga olib keladi. Zo'ravonlikni oqlash orqali buzg'unchi g'oyalar inson huquqlarini buzadi va jamiyatdagi insoniy qadriyatlarni zaiflashtiradi. Buning natijasida inson qadr-qimmati va erkinliklari inkor qilinadi.

Buzg'unchi g'oyalar inson ma'naviyatini zaiflashtiradi va jamiyatda ma'naviy inqirozga olib keladi. Bu g'oyalar ma'naviy qadriyatlarni inkor etib, odamlarning axloqiy yo'ldan chetlashishiga olib keladi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarni ma'naviy jihatdan zaiflashtiradi, ularni yomonlik va zo'ravonlikka moyil qiladi. Ma'naviy inqiroz jamiyatda boshqa qadriyatlar va axloqiy qoidalarning ham buzilishiga olib keladi. Buzg'unchi g'oyalar insonlarni ma'naviy nuqtai nazardan zaiflashtirib, ularni hayotning ma'nosi va maqsadini yo'qotishga undaydi. Bu shaxsning ma'naviy tanazzuli va jamiyatdan chetlashishiga olib kelishi mumkin[11.708].

Xulosa. Buzg'unchi g'oyalar va inson buzg'unchiligi axloqiy relyativizm, yaxshilik va yomonlik tushunchalarining buzilishi, egoizm va zo'ravonlikni qonuniylashtirish kabi muammolar orqali jamiyatning axloqiy va ma'naviy asoslarini zaiflashtiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jarayonlar axloqiy inqirozga olib kelib, insoniyatning ma'naviy qadriyatlariga zarar yetkazadi, shaxslar va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni zaiflashtiradi.

Buzg'unchi g'oyalar va faoliyat ijtimoiy, siyosiy va axloqiy muammolarni chuqurlashtirib, jamiyatning barqarorligiga katta xavf tug'diradi. Ularga qarshi kurashish uchun jamiyat barqaror axloqiy, siyosiy va madaniy qadriyatlar asosida ish tutishi va radikalizmga qarshi samarali choralar ko'rish zarur.

Buzg'unchi g'oyalar jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Ular ijtimoiy-siyosiy tizimda beqarorlik, qarama-qarshilik va ishonchsizlikni kuchaytiradi, davlat institutlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mafkuraviy bo'shliq mavjud bo'lgan jamiyatlarda bunday g'oyalar tez tarqaladi va keng ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Buzg'unchi g'oyalarning ildizi ma'naviy-axloqiy inqiroz bilan bog'liq. Axloqiy qadriyatlar susaygan, ma'rifat va tanqidiy fikrlash yetarli darajada shakllanmagan muhitda yot va radikal g'oyalar inson ongiga oson singib boradi. Shu bois, ma'naviy tarbiyani kuchaytirish va axloqiy immunitetni shakllantirish buzg'unchi g'oyalarga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurash kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Faqat huquqiy yoki ma'muriy choralar yetarli emas; ta'lim-tarbiya, ma'rifat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan mafkuraviy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Ilmiy-falsafiy tahlil va

jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokidagi ma'naviy siyosat barqaror taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39
2. Жакбаров М. ва бошқалар. Миллий ғоя - хавфсизлик ва барқарорлик омили – Тошкент.: Турон замин зиё, 2014.–Б. 38-39
3. Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар -Тошкент: Турон замин зиё, 2015. -Б.299.
4. Пахрутдинов Ш., Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-115
5. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси Қомуси 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214
6. Пахрутдинов Ш.. Жўраев Т. ва бошқалар. Миллий манфаатлар ва бошқарув масъулияти. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б.114-116
7. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-жилд, -Тошкент: ЎФМЖ, 2022. -Б. 214-215
8. Щипунов О.К. Этический релятивизм как социорегулятивная парадигма // -М.: Наука и современность, – 2014.
9. Круглов А. Моральный релятивизм // Здравый смысл. – 2001. – № 4. -С. 5-7
10. Фалсафа қомусий луғати. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. -Тошкент: Шарқ, 2004. -Б. 472
11. Назаров Қ. ва бошқалар. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати -Тошкент:, Ғ.Ғулом номидаги НМИУ, 2009. -Б. 708

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).